GILAMDO'ZLIK TARIXI

Raxmatova Mavjuda Uralovna
Qarshi davlat texnika universiteti
O'zbekiston tarixi kafedrasi tadqiqotchisi

Yulduz Ergashova Alimovna
Qarshi davlat texnika universiteti
O'zbekiston tarixi kafedrasi, t.f.d., prof.
https://doi.org/10.5281/zenodo.23204245

Gilamdo'zlik insonlarning moddiy va ma'naviy tarixida qadimiy hunarmandchilikning asosiy turlardan biri sifatida e'tirof etiladi.Gilamdo'zlik tarixini o'rganish faqatgina to'qimachilik texnalogiyasining rivojlanishi emas balki ma'lum bir hudud xalqlarining tarixiy-madaniy taraqqiyotini ham tadbiq etish imokonini beradi.

O'zbekiston diyorida gilamdo'zlik an'analari uzoq tarixiy jarayonlar bilan bevosita shakllangan desak mubolag'a bo'lmaydi. O'zbekistonning nomoddiy madaniy merosiga oid materiallarda gilamdo'zlik eng ko'p mehnat talab qiladigan an'anaviy badiiy hunarmandchilik turlaridan biri sifatida qayd etilib,uning ildizlari qadimgi davrlarga borib taqalishini bildiradi.Gilam va boshqa hunarmandchilik buyumlarini tayyorlashda asosiy xomashyo sifatida paxta tolasi,qo'y,echki,tuya junlaridan ishlatiladigan ushbu hunar ,avvalo, chorvachilik bilan shug'ullanadigan,jumladan, o'troq, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi jamoalar muhitida rivojlangan."Gilam" atamasining kelib chiqishi haqida tadqiqotchilar uni fors-tojik tiliga xos so'z sifatida keltirishadi. Fors-tojik tilidagi "Gilem" shakli bilan bog'lanib, dastlab "palos","patsiz gilam" ma'nolarini anglatgan.Tojik tilining izohli lug'atida gilem "jun chakmon hamda palos"ning bir turi sifatida izohlangan**.[1]**

Mazkur jarayon O'zbekiston hududining gilamchilik an'analarida ham o'z aksini topadi.Jumladan, Xiva,Gulobod,Nurota,Ishtixon va Shofirkon kabi hududlarda patsiz taqir gilam-arabi to'qilishi qayd etiladi.Qashqadaryo va Surxondaryoning ayrim tumanlarida esa "Gilam"deyilganda patsiz taqir gilam tushunilishi keltirib o'tilgan.

Buxoro,G'ivdivonda "gilem", Kitobda "g'ilam", Shahrisabzda "k'lem\g'lim,g'lam"Kosonda "gilem",Chiroqchi tumanida "patli gilam"ma'nosida "tukli gilam" variantlar mavjudligi qayd etiladi.Bu shakllarning barchasi ayrim hududlarda taqir gilam ma'nosi ifodalagan**.[2]**

Gilam tushunchasining tarixiy ildizlarini yanada chuqurroq ko'zatish uchun qadimgi turkiy yozma manbalarga ham murojaat qilish joiz.Mahmud Qoshg'ariyninng XI-asrga oid "Devon-u lug'otit turk" asarida hozirgi "gilam"so'ziga yaqin ma'noni ifodalovchi so'zlar-jazm,kiziz,kiwiz,kuvuz,kubsun kabi so'zlar uchraydi.Ulardan ayrimlari yerga yoki uyga to'shaladigan palos,gilam,namat kabi buyumlarni bildirgan.[3]

Gilamdo'zlikning dastlabki shakllari haqida gapirganda Markaziy Osiyoning Tbiiy geografik va xo'jalik sharoitini hisobga olish lozim.Bu yurtda chorvachilikning keng tarqalishi jun mahsulotlarini qayta ishlash va undan turli uy-ro'zg'or buyumlari tayyorlash uchun zarur tabiiy asos yaratgan.Jun mahsulotini bo'laklarga bo'lish,titish,ip tayyorlash,uni

tabiiy bo'yoqlar yordamida bo'yash va turli usullarda to'qish ishlari asta-sekin murakkablashib gilamdo'zlikning mustaqil hunar sifatida yuzaga kelishiga asos bo'lgan. Gilamdo'zlik hunarmandchilikning bir turi hisoblanib,uning eng qadimgi turlarini o'rganishda arxeologik topilmalar muhim ahamiyatga ega.Markaziy Osiyo gilamdo'zligiga bag'ishlangan tadqiqotlarda Pazyiriq yodgorliklaridan topilgan gilam alohida e'tiborga loyiq.Mazkur gilam dastlab mill.avv. V-IV-asrlarga tegishli deb sanalgan bo'lsa,keyingi tadqiqotlarda uning davri mill.avv. IV-asrning oxiri-III-asrning boshlariga yaqinlashtirilgan.U hozirgi paytgacha saqlanib qolgan eng qadimgi tugunli,patli gilamlardan biri sifatida baholanadi.[1]

Paziyirq gilamini O'zbekiston hududida yaratilgan deb qattiy aytish ilmiy jihatdan bir xulosaga kelish qiyin.Tadqiqotlar uning kelib chiqishi masalasida turli fikrlarni ilgari surganlar.Ayrim ilmiy qarashlarda u Markaziy Osiyo yoki Sibir hududlarida tayyorlangan bo'lishi mumkinligi qayd etiladi. Shu bois,ushbu topilmani O'zbekiston gilamdo'zligining to'g'ridan to'g'ri namunasi sifatida emas balki Markaziy Osiyo va unga tutash hududlarda qadimgi gilamchilik texnikasi mavjud bo'lganligini ko'rsatuvchi muhim arxeologik dalil sifatida baholash maqsadga muvofiq.[2]

Markaziy Osiyoda gilamchilikning tarixiy rivojlanish jarayonlari turli etnik guruhlarning ko'chishi,o'zaro madaniy aloqalari va xo'jalik an'analari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan.Qadimgi va O'rta asrlardagi gilamdo'zlik an'analarining shakllanishida turkiy qabilalarning,xususan, ko'chmanchi chorvador jamoaning katta rol o'ynaganini aytish joiz.Encyclopaedia Iranica ma'lumotlariga ko'ra,ayrim olimlar tugunli gilam texnikasining rivojlanishini Markaziy Osiyo hududidagi turkiy qabilalar harakati bog'aydilar.

O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi ma'lumotlarida esa mug'ullargacha bo'lgan davrda ug'uz kelib chiqishiga ega turkiy qabilalar tayyorlagan gilam mahsulotlari keng tarqalganligi qayd etiladi.Temuriylar davrida esa turkiy va eroniy gilamchilik an'analarining faol o'zaro ta'siri ko'rsatilgan.

XV-asrdan boshlab Dashti Qipchoqdan Movarounnahrga kelgan o'zbek qabilalarining gilam mahsulotlari ham keng tarqala boshlagan. Mana shu tarixiy jarayon turli etnik va hududiy gilamchilik an'analarining o'zaro uyg'unlashuviga sabab bo'lgan. Mana shu nuqtai nazardan o'zbek gilamdo'zligi biror bir davr yoki yagona etnik guruh tomonidan birdaniga shakllangan hunar emas balki ko'p asrlar davomida turli xalqlar va qabilalarning hunarmandchilik tajribasi,texnalogik usullari hamda badiiy qarashlari o'zaro ta'siri ostida rivojlangan murakkab madaniy hodisa sifatida qaralishi lozim.

O'rta asrlarga kelib Markaziy Osiyoda hunarmandchilikning ko'plab turlari rivojlandi. Shahar va qishloq aholisi o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning kuchayishi,savdo yo'llarining faoliyati gilam va boshqa to'qimachilik mahsulotiga bo'lgan eytiyojning ortishiga xizmat qiladi.Gilamlar uy-ro'zg'orda,saroy va jamoat binolarida,diniy marosimlarda,shuningdek,ko'chmanchi xo'jaliklarda amlaiy va estetik vazifalarni bajargan.

Temuriylar davrida Markaziy Osiyoda san'at va hunatmanddchilikning rivojlanishi gilamdo'zlikka ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi ma'lumotlarida aynan shu davrda turkiy va eroniy gilamchilik an'analarining faol o'zaro ta'siri kuzatilgani qayd etiladi.

XVI-asrdan boshlab Movarounnahr hududida o'zbek qabilalarining gilamdo'zlik an'analari yanada faol namoyon bo'la boshladi. Dashti Qipchoqdan kelgan o'zbek

qabilalarining an’analari mahalliy hunarmandchilik tajribasi bilan qo’shilib keyingi davr o’zbek gilamdo’zligining madaniy asoslarini shakllantiradi.

Bu davrga kelib gilam ishlab chiqarishning ikki muhim yo’nalishini ajratish mumkin:birinchisi,ko’chmanchi va yarim ko’chmanchi aholi orasidagi an’anaviy uy hunarmandchiligi; ikkinchisi,shahar bozorlari uchun mahsulot tayyorlash,ayniqsa,XIX-asrga kelib ayrim hududlarda gilam mahsulotlarining bozor uchun tayyorlanishi kuchaydi.

UNESKO ning Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari tarixiga bag’ishlangan nashrida XIX-asr tegishli qismida gilamchilik bilan o’zbek-turkmanlar hamda ayrim o’zbek tojik va arab guruhlari shug’ullangani ular orasida uzun patli julxurs gilamlarini tayyorlash an’anasi mavjud bo’lganligi qayd etiladi.[1]

Xulosa qilib aytganda, gilamdo‘zlik insoniyatning eng qadimiy hunarmandchilik turlaridan biri bo‘lib, uning shakllanishi kishilik jamiyatining dastlabki davrlarida insonning tabiiy xomashyodan kundalik ehtiyojlari uchun foydalanishi bilan chambarchas bog‘liq holda yuzaga kelgan. Vaqt o‘tishi bilan oddiy to‘qimachilik buyumlari takomillashib, gilam nafaqat amaliy ehtiyojni qondiruvchi buyum, balki insonning estetik qarashlari, badiiy tafakkuri va madaniy tajribasini ifodalovchi san’at asariga aylangan. Gilamdo‘zlik taraqqiyoti davomida xomashyoni tayyorlash, ip yigirish, bo‘yash, to‘qish va bezash texnologiyalari bosqichma-bosqich takomillashgan. Tabiiy tolalardan foydalanish, ayniqsa, qo‘y junining keng qo‘llanilishi gilamchilikning rivojlanishida muhim omil bo‘lgan. Tabiiy bo‘yoqlardan foydalanish esa gilamlarga o‘ziga xos rang-baranglik berib, turli xalqlarning mahalliy badiiy an’analarini shakllantirgan. Tarixiy taraqqiyot jarayonida gilamdo‘zlik Sharq xalqlari, xususan, Markaziy Osiyo xalqlarining moddiy va ma’naviy madaniyatida alohida o‘rin egallagan. Gilamlar uy-ro‘zg‘orda foydalaniladigan buyum bo‘lish bilan birga, mehmondo‘stlik, to‘y-marosimlar, oilaviy urf-odatlar va diniy-amaliy ehtiyojlar bilan ham bog‘langan. Shu sababli gilamdo‘zlik mahsulotlarida xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi, estetik didi va tarixiy xotirasi o‘z aksini topgan. Gilamlarning badiiy bezagida qo‘llanilgan geometrik, o‘simliksimon va hayvonot olamiga oid naqshlar, ranglarning o‘zaro uyg‘unligi hamda turli ramziy belgilar gilamdo‘zlikni oddiy hunardan yuksak darajadagi amaliy san’atga olib kelgan. Har bir davr va hudud o‘zining ijtimoiy-madaniy sharoitidan kelib chiqib, gilamlarning kompozitsiyasi, naqshlari, ranglari va texnologiyasiga muayyan yangiliklar kiritgan. Shuningdek, gilamdo‘zlik tarixini o‘rganish uning avloddan-avlodga o‘tib kelgan an’anaviy bilim va ko‘nikmalar tizimi ekanligini ko‘rsatadi. Usta hunarmandlarning tajribasi, ayollar mehnati, oilaviy hunar maktablari va mahalliy an’analar gilamchilikning uzluksiz davom etishini ta’minlagan. Shu jihatdan gilamdo‘zlik xalqning tarixiy-madaniy merosini saqlash va keyingi avlodlarga yetkazishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilgan. Umuman olganda, gilamdo‘zlik tarixini insoniyatning xo‘jalik faoliyati, turmush tarzi, badiiy tafakkuri va madaniy taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan ko‘p qirrali tarixiy-madaniy hodisa sifatida baholash mumkin. Uning asrlar davomida takomillashib borishi natijasida gilam oddiy maishiy buyumdan xalqning tarixiy xotirasi, milliy o‘zligi va estetik qadriyatlarini mujassamlashtiruvchi noyob amaliy san’at namunasiga aylangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bekchanova D.R. Xorazm gilamchilik leksikasi:magistirlik dissertatsiyasi.-Urganch,2012,37
2. Denny W.Carpets XVI.Central Asian.Carpets 4 Encyclopaedia Ironica.Voll V, Fasc.1 1990.P.5.9
3. History of civilizations of Central Asia Vol.V; Development in Contrast: From the sixteenth to the Mid-Nineteenth Century. UNESCO publishing.Paris,2003.P.679